

Qishloq xo'jaligi ekinlari uchun stimulyator

Qishloq xo'jaligi davlat iqtisodiyotining asosiy tarmog'i hisoblanadi. Bu sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy qilish muhim.

O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutida yaratilgan "Uchqun" biostimulyatori ham qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshiradi. Ushbu biostimulyator g'o'za barglaridan olingan tabiiy mahsulot bo'lib, qishloq xo'jaligi o'simliklariga ekishdan oldin ishlov berish yoki vegetatsiya davrida purkash usullarida qo'llanildi.



"Uchqun" qishloq xo'jaligi o'simliklarining o'sib rivojlanishini tezlatuvchi, hosildorlikni oshiruvchi, ularning kasalliklarga va noqulay sharoitlarga bardoshlilagini oshiruvchi stimulyator hisoblanadi. Bu preparat bilan chigitga ekishdan oldin ishlov berilganida o'simlikning o'sib rivojlanishi tezlashadi va hosildorlik gektaridan g'o'zaning naviga qarab 2,7-3,5 sentnerga, bug'doyniki 10-24%ga, pomidorniki 20.1-23.0% ga, bodringda 23.8-29.10% ga oshadi.



O'simlikning rivojlanishining hamma bosqichlarida 1 tonna urug' uchun 5- 10 gr. qo'llaniladi. Preparat qo'llanganda urug'ning unib chiqishini, ildiz qismining rivojlanishini, gullahini va pishishini tezlashtiradi, mevalar sonini va hosildorlikni ko'paytiradi, o'simliklarning kasalliklarga va suvsizlikka chidamliligi oshadi.